

ISSN: 2181-9416



ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

ҲУҚУҚИЙ, ИЖТИМОИЙ, ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

ISSN 2181-9416
Doi Journal 10.26739/2181-9416

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

4 СОН, 3 ЖИЛД

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 4, ВЫПУСК 3

LAWYER HERALD

VOLUME 4, ISSUE 3



TOSHKENT-2023

Мундарижа

ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ

1. ВАКНРАМОВА Mokhinur LEGAL ANALYSIS OF METHODS OF REALIZATION OF PROPERTY RIGHTS BY AUTHORS AND PRACTICE OF LAW ENFORCEMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	8
2. TURDIEV Bobir Sobirovich KORPORATIV SEKTORNING EKOLOGIK MAS'ULIYATINI OSHIRISHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI	14
3. ҲАМДАМОВ Шаҳзод Мақсуд ўғли РАҚАМЛАШТИРИШ ТУШУНЧАСИ, МАЗМУН-МОҲИЯТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ	23

СУД ҲОКИМИЯТИ. ПРОКУРОР НАЗОРАТИ. ҲУҚУҚНИ МУҲОҒАЗА ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

4. ПАНАБЕРГЕНОВА Жамиля Таировна ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДОПРОИЗВОДСТВЕ	30
5. JUMAYEV Shohjahan Begimqul o'g'li QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR TEKSHIRUVLARINI O'TKAZISH ASOSLARI VA ULARNI QONUN HUIJATLARIDA TARTIBGA SOLISHNING DOLZARB MASALALARI.....	36

ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИ, ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ. КРИМИНОЛОГИЯ. ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ ҲУҚУҚИ

6. ОТАЖОНОВ Абдоржон Анварович, НОРМАНОВА Клара Эшназаровна ЖИНОЯТНИ ТАШКИЛ ЭТГАН ЁКИ РАҲБАРЛИК ҚИЛГАН ШАХС ҚИЛМИШИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ.....	43
7. КАРИМОВ Ифтихор Ибрагимович ЭКСТРЕМИЗМ ТУШУНЧАСИ, ШАКЛЛАРИ ВА МОҲИЯТИ: ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ..	52
8. SHUKUROVA Muhayyo Mukumjanovna НОКИМИЯТ НАРАКАТСИЗЛИГИ UCHUN JAVOBGARLIK MUAMMOLARIGA DOIR ILMIY TADQIQOTLARNING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISHI	61

ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИ. КРИМИНАЛИСТИКА. ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ҲУҚУҚ ВА СУД ЭКСПЕРТИЗАСИ

9. БОЗОРОВ Мақсудали Махмудович ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ПРОЦЕССУАЛ ЧИҚИМЛАРНИ УНДИРИШ, ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ БИЛАН ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ.....	66
---	----

ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ

10. TILLABAYEV Mirzatillo

THE UNIVERSAL DECLARATION OF HUMAN RIGHTS: HISTORICAL OVERVIEW AND IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN..... 74

11. ФАЙЗУЛЛАЕВА Нигорахон Равшановна

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВАЯ СИСТЕМА ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ НЕЗАКОННОГО ОБОРОТА КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В МЕЖДУНАРОДНОМ КУЛЬТУРНОМ ПРАВЕ..... 80

12. САФАРОВА Шахло Пулатовна

ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ БЎЙИЧА ТАЪЛИМНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ШАРТНОМАВИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАНБАЛАРИ 89

13. ЕСЕМУРАТОВ Алишер Избасарович

ПРИЧИНЫ, ТЕНДЕНЦИИ И ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ НЕЗАКОННОЙ МИГРАЦИИ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ..... 96

14. ХАМЗАЕВ Дилавер

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В БОРЬБЕ С ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ПРЕСТУПЛЕНИЯМИ 102

ҲУҚУҚИЙ АМАЛИЁТ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА

15. РАХМАНОВ Шухрат Наимович, ХАМДАМОВА Фируза Уразалиевна

МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА ЦИФРОВУЮ ЭКОНОМИКУ 113

16. SUFIEVA Dilafruz

ABOUT QUALITATIVE CHANGES IN THE RULE-MAKING PROCESS.....120

17. САФАРОВ Темур Уктамович

АНАЛИЗ ВНЕШНЕГО И ВНУТРЕННЕГО КОНТЕКСТА ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ НАЛИЧИЯ УСЛОВИЙ ДЛЯ КОРРУПЦИИ В ГОСУДАРСТВЕННОМ СЕКТОРЕ125

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ ВЕСТНИК ЮРИСТА LAWYER HERALD

SHUKUROVA Muhayo Mukumjanovna
Ўзбекистон Республикаси Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

НОКИМИЯТ ХАРАКАТСИЗЛИГИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МУАММОЛАРИГА ДОИР ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҲОЛАТИ ВА РИВОЖЛАНИШИ

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): SHUKUROVA M.M. Hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlik muammolariga doir ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy holati va rivojlanishi// Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2023) Б. 61-65.

 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2023-4-8>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlik muammolariga doir ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy holati va rivojlanishi alohida o'rganilib ushbu masala yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilindi va statistik tahlil, kuzatish, materiallarni o'rganish usullari orqali xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruv organlari, ijro hokimiyati hokimiyat harakatsizligi, jinoiy javobgarlik, jinoyat protsessual kodeksi, mansabni suiiste'mol qilish.

ШУКУРОВА Мухаё Мукумжановна
Самостоятельный соискатель Академии МВД Республики Узбекистан

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ПРОБЛЕМЕ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА БЕЗДЕЙСТВИЕ ВЛАСТИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье отдельно изучено современное состояние и развитие научных исследований по проблемам ответственности за бездействие органов власти, проанализированы научные исследования, проводимые по данному вопросу, а также разработаны выводы и предложения методами статистического анализа, наблюдение и изучение материалов.

Ключевые слова: органы государственного управления, исполнительная власть, бездействие власти, уголовная ответственность, Уголовно-процессуальный кодекс, злоупотребление служебным положением.

SHUKUROVA Mukhayo
Independent applicant of the Academy
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

MODERN STATUS AND DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC RESEARCH ON PROBLEMS OF RESPONSIBILITY FOR AUTHORITY INACTION

ANNOTATION

In this article, the modern state and development of scientific research on the problems of responsibility for the inaction of the authorities was studied separately, the scientific research works conducted on this issue were analyzed, and conclusions and proposals were developed through the methods of statistical analysis, observation, and study of materials.

Keywords: state management bodies, executive power, power inaction, criminal liability, criminal procedural code, abuse of office.

Dunyoda shaxs huquq va erkinliklarini asossiz cheklanishini oldini olish va ijro organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan sovuqqonlik bilan qarash, jinoyat ishini sudga qadar yuritish jarayonida sud himoyasida bo'lish huquqini ta'minlash muammolarini optimal hal etishga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030 yilgacha erishilishi lozim bo'lgan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" (Sustainable Development Goals)dan biri ham aynan odil sudlovga erishish darajasini oshirishdan iborat bo'lib, 2022 yilda dunyo davlatlarining 64%da qonun ustuvorligi indeksi yomonlashib, O'zbekiston Respublikasi ushbu ko'rsatkich 9% yaxshilangan 21 ta davlat qatoridan joy olgan bo'lsada, dunyoda 64-o'rinni egallagan [1]. Hokimiyatning mansabdor shaxslari tomonidan nazorati jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov samaradorligini oshirish va sud himoyasida bo'lish huquqini ta'minlashning asosiy vositasi ekanligi nuqtai nazaridan sud nazorati institutini takomillashtirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi [2].

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq davlat boshqaruv institutlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksida ijro etuvchi hokimiyat organlari asosiy muammolardan biri hisoblanganligini ko'rishimiz mumkin. Ular faoliyatining tashkiliy darajasi va sifati samarali faoliyat yuritayotgan davlatlarning boshqaruv tizimining qay darajada to'g'riligini ham belgilab bermoqda. Ijro etuvchi hokimiyat organlari doimiy ravishda jamiyatning diqqat-e'tiborida bo'lib, davlat boshqaruvini isloh qilish bo'yicha eng muhim va eng murakkab vazifalarni amaliy amalga oshirishda asosiy yuk aynan ularning zimmasiga yuklanadi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari uchun hozirgi davrning o'ziga xosligi shundaki, oldindan isloh qilishga harakat qilib kelingan hamda hozirgi vaqtda unga ehtiyoj mavjud. Amaliyotda ijro hokimiyati faoliyati samaradorligining etarli emasligi, vakolatlarining ko'pligi va ularning kutilayotgan sifati va jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlik davlat boshqaruvini isloh qilish yo'lidagi asosiy to'siq sifatida e'tirof etilgan. Boshqaruvning ayrim tashkiliy shakllarini rasmiy yaratish, faoliyatini qayta tashkil etish yoki tarkibiy o'zgartirish, ularning funksiyalarini qayta taqsimlash bo'yicha doimiy ravishda ko'rilayotgan chora-tadbirlar, afsuski, ijro hokimiyati va uning tuzilmalari faoliyatini yanada yaxshilay olmayapti. Ijroiya hokimiyatini o'z vaqtida isloh qilmaslik va o'z vaqtida amalga oshirilmayotgan chora-tadbirlar kelajakda qonunbuzilishlarning yana o'sishiga olib keladi. Islohotlardan oldingi ko'rsatkichlar pozitsiyalari empirik yondashuvlar, tashkiliy boshqaruv tuzilmalaridagi mashhur sinov va xato usuli raqamlarning oshib ketishiga sabab bo'ladi [3].

Har qanday boshqaruvga oid bo'lgan tizimda boshqaruv organi tomonidan organning maqsad va vazifalariga hamohang ravishda ma'lum usullar qo'llaniladi. Boshqaruv organi tomonidan qo'llaniladigan u yoki bu usul eng avvalo huquq normasi bilan tartibga solinishi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga va ularni ro'yobga chiqishiga zamin yaratishi lozim [4]. Aks holatlar esa, aynan yuqorida fikr yuritilayotgan hokimiyat harakatsizligi holatlarini yuzaga keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganidan beri mamlakatda ma'muriy islohotlarni boshlash uchun ko'plab urinishlar bo'ldi. Islohot davlat hokimiyatini amalga oshirishning butun tizimiga, birinchi navbatda, ijro hokimiyati tizimiga qaratilgan bo'lishi lozim. Tan olish o'rinliki, bu urinishlar, asosan, ba'zilarini tugatish, ularning o'rnida boshqa ijro hokimiyat organlarini shakllantirish, turli vazirlik va idoralarning iyeyarxik bo'ysunishini

o'zgartirish bilan cheklanib qolmoqda. Albatta bu qonuniy normalar umumiy hokimiyat boshqaruvining sistematik tuzilishi va uning funksiyasini yaqqol qamrab olmoqda, ammo ijro hokimiyatining unga amal qilish va tushunib targ'ib etish darajasi ba'zi o'rinlarda talab darajasida emasligi ma'lum bo'lmoqda. Bularning barchasi respublika ijroiya organlarini shuningdek, mahalliy ijro hokimiyat organlarini isloh qilishda izchillik yo'qligidan dalolat beradi.

Hokimiyat harakatsizligi va funksional jarayonlardagi xatolar borasida umumiy fonda mamlakatimiz olimlari G.Abdumajidov, Z.F.Inog'omjonova, B.X.Po'latov, F.M.Muxitdinov, D.M.Mirazov, G.Z.To'laganova, S.M.Raxmonova, U.A.Tuxtasheva, O.M.Madaliyev, S.M.Mamadiev, M.Utepbergenov, G'.Shodiev va boshqalarning ilmiy ishlarida ishlarni olib borganlar. Jumladan ushbu g'ayriqonuniy holatlarda ishni sudga qadar yuritish bosqichida nazorat institutini huquqiy jihatdan tartibga solishning umumiy va ayrim masalalari o'rganilgan. Ish bo'yicha javobgarlik va unga qadar yuritish bosqichida qonuniylik va shaxs huquqlarini ta'minlash, shuningdek sud nazoratining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari bilan bog'liq muammolari MDHga a'zo davlatlarda V.P.Bojev, V.N.Galuzo, O.V.Izotova, N.N.Kovtun, N.A.Kolokolov, V.A.Lazareva, N.G.Lopuxina, L.N.Maslennikova, T.G.Morщakova, I.L.Petruxin, A.V.Colodilov, A.P. Fokov, G.P.Ximicheva, N.M.Chepurnova, L.V.Golovko, P.A.Lusenko; xorijlik olimlardan M.S.Ahlatov, M.P.O'higgins, L.B.Orfield, A.Murado, Martin Böse va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Aksariyat yuridik adabiyotlarda, davlat boshqaruvi jarayonida qonuniylikni ta'minlashning asosiy usuli sifatida qonuniy nazorat ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, D.M. Ovsyankoning fikricha, davlat organlari faoliyatida (hokimiyat harakati) qo'llaniladigan turli huquqiy va tashkiliy shakl va usullar, amaliy usullar – qonuniylikni ta'minlash usullari hisoblanadi hamda bu asosiy nazoratdir [5]. Bu erda D.M.Ovsyankoning fikriga ko'ra davlat boshqaruvida qonuniylikni taminlashda ikkita usul yani kontrol va nazoratni nazarda tutgan [4]. A.A.Karmolitskiyning fikricha esa, davlat boshqaruvida qonuniylik tashkiliy-huquqiy vositalar orqali ta'minlanadi. Mazmuniga ko'ra ular qonuniylikni ta'minlash usullarini, uning tizimini anglatadi. Qonuniylikni ta'minlash jarayonida davlat organlari o'z vakolatlari doirasida kontrolni hamda uning ko'rinishlari bo'lgan nazorat va ijro etishni tekshirishni amalga oshiradilar. A.A.Karmolitskiy boshqa huquqshunos olimlardan farqli ravishda, qonuniylik va intizomni ta'minlashning uchinchi usulini – ijro etishni tekshirishni ham kiritadi [6].

Ushbu masala yuzasidan izlanishlar jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, kontent-tahlil, mantiqiyjuridik, shu bo'yicha bo'lgan holatlar va ba'zi jinoyat ishi materiallarini o'rganish, statistik ma'lumotlar tahlili, kuzatish kabi usullaridan foydalanilgan.

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyatining obyektiv tomoni jinoyatning sub'ektiv tomoni bilan birgalikda mansabni suiiste'mol qilish jinoyati uchun javobgarlikning obyektiv chegaralarini belgilab beradi. Shaxsning xulqini maqsadini baholashning zaruriy asosini uning sodir qilgan qilmishidan bilish mumkin. Masalaga bunday qarash aniq sodir qilingan harakatlarning obyektiv xususiyatlariga nisbatan sub'ektiv munosabatlarni kafolatlaydi [7].

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyati faqat faol harakat bilan sodir etiladi. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyatida harakat mansabdor shaxsning o'z xizmat vazifasi yuzasidan unga berilgan vakolatlardan foydalangan holda qilinadigan g'ayriqonuniy harakatlari tushuniladi. Mansabdor shaxsning o'ziga yuklatilgan vazifalarini qasddan bajarmaslik (harakatsizlik) bu jinoyat tarkibini tashkil qila olmaydi. Bunday harakatsizlik O'zbekiston Respublikasi JKning [8] 208 moddasida nazarda tutilgan, "hokimiyat harakatsizligi" jinoyati bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Avvalgi (1959 yil 21 mayda qabul qilingan) JKda bunday harakatsizlik ham hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyatining turi hisoblanar edi.

Qonunshunos bunday holatlarni aynan harakat va harakatsizlik holatlarini bir-biridan ajratishni lozim topdi. Sud amaliyoti xulosalariga ko'ra hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish hokimiyat harakatsizligidan anchagina ko'p holatlarda sodir qilinishini ko'rsatadi. Jumladan jinoiy ishlarining analizi ko'r-satkichlariga ko'ra 85% holatlarda hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish (harakat bilan) sodir kilgan bulsa, fakatgina 15% holatlardagina hokimiyat harakatsizligi sodir etilganini kuzatish mumkin.

Bundan umumiy xulosa shuni anglatadiki, hokimiyatning harakati uning harakatsizligidan ko'ra ko'proq holatlarda ikkinchi tomon (shaxs)ning ziyoniga xizmat qilmoqda. Hokimiyatning harakatsizligi o'z qonuniy vakolatlaridan murojaat qiluvchining foidasiga foydalanish imkoniyatini qasddan ishlatmaslik va ushbu holatlarga nisbatan g'ayriqonuniy sovuqqonlikga yo'l qo'yish orqali yuzaga keladi deb aytish mumkin. Unga nisbatan javobgarlik esa yuqorida JK da o'z aksini topgan.

Masalaga fakt va statistik tahlil nuqtai nazaridan yondashgan holda quyidagi holatlarni misol qilib keltirish mumkin: O'zbekistonda 2022 yilning 9 oyida mansabdor shaxslarning jinoyatlari oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 658 milliard so'm moddiy zarar etkazilgan. Bu haqda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Zuhra Shodieva OAV va umumiy sessiyaning hisobot yig'lishlarida ma'lum qilgan [9].

Qayd etilishicha, statistika bo'yicha mansabdor shaxslarning jinoyatlari oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 2019 yilda 556 milliard, 2020 yilda 1,858 trillion, 2021 yilda 500,1 milliard, 2022 yilning 9 oyida 658 milliard so'm moddiy zarar etkazilgan.

Ta'kidlanishicha, «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi bilan mansabdor shaxslarga nisbatan choralar kuchaytirilmoqda.

Ya'ni «Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish», «Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish», «Hokimiyat harakatsizligi», «Mansab soxtakorligi» va «Hokimiyatni suiiste'mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi» jinoyatlar agar «g'arazgo'ylik» niyatida sodir etilsa, korrupsiyaviy jinoyat hisoblanishi belgilanib, mazkur harakatlar uchun og'irroq jazolar belgilanmoqda.

Shuningdek, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, firibgarlik, soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash uchun hukm qilingan, biroq jinoyat oqibatida etkazilgan zararni to'liq qoplamagan shaxslarga hamda poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni engilrog'i bilan almashtirish tatbiq qilinmasligi nazarda tutilmoqda.

Ushbu o'rinda hokimiyat harakatsizligiga nisbatan jinoiy javobgarlik bo'yicha mahalliy qonunchilik va xorijiy tajribalarga asosan quyidagi normalarni tadbiq etilmoqda:

Sudlar shuni nazarda tutishi lozimki, ma'muriy organlarning quyidagilar bilan bog'liq qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan shikoyatlar MSiYutK [23-bobida](#) nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi: [10].

- bino, inshoot va boshqa obyektlarni joylashtirish, loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, foydalanishga topshirish, foydalanish va buzishga kelishish va ruxsat berish (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan Arxitektura va qurilish sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy [reglamentlar](#));

- jamoat birlashmalari, shu jumladan siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish, shuningdek, davlat organining belgilangan muddatda bunday ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovlashi ("O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 12-moddasining [uchinchi qismi](#), "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 9-moddasining [uchinchi qismi](#), "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 12-moddasining [uchinchi qismi](#), "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining [26-moddasi](#));

- ommaviy axborot vositasii davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoki davlat organining belgilangan muddatda uni ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovlashi, ommaviy axborot vositasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomani haqiqiy emas deb topish, ommaviy axborot vositasining chiqarilishini to'xtatib turish yoki tugatish ("Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining [22 — 24-moddalari](#));

- Fuqarolarning axborot olish huquqini amalga oshirish ("Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining [12-moddasi](#)).

Xulosa o'rnida shuni aytish o'rinliki, hokimiyatning harakatsizligi qanday holat va og'irlik

darajasida qat'iy nazar avvalo inson manfaatlariga nisbatan qarshi harakat hisoblanadi va ushbu jinoyatning amalga oshirilishi birinchi navbatda davlat boshqaruv institutlarining umumiy qonuniy normalariga zid harakat hisoblanadi. Buni sodir qilgan mansabdor shaxs davlatning boshqaruv vakolatiga ma'lum darajada egaligini hisobga olgan holda unga nisbatan javobgarlik ham shu miqyosdagi qonuniy doirada qattiq rejimda amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz. Zero xalq davlat hokimiyatiga emas, balki davlat hokimiyati organlari xalqning manfaatiga xizmat qilishi demokratik davlatning asosiy va o'zgarmas prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. Qonun ustuvorligi indeksi // URL: <https://worldjusticeproject.org>.
2. Mo'minov B.A. Jinoyat ishlarini sudga qadar yuritish ustidan sud nazorati. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. -T.: 2020. -106b.
3. Quدراتиллаев Jaxongir, Zokirjon O'G'Li Mahalliy ijro hokimiyat organlari boshqaruv tizimini isloh etish masalalari // Ta'lim fidoyilari. 2022. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mahalliy-ijro-hokimiyat-organlari-boshqaruv-tizimini-isloh-etish-masalalari> (дата обращения: 13.08.2023).
4. O.Qurbonov. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash usullari. Eurasian journal of academic research. Innovative Academy Research Support Center. Volume 1 Issue 02, May 2021, P.204 // URL: <file:///C:/Users/user/Downloads/V1I2046.pdf>
5. Ю.М.Козлов, Л.Л.Попов. Административное право. – М.: «Юрист», 2020
6. А.П.Алехин, А.А.Кармолицкий, Ю.М.Козлов. Административное право Российской Федерации. Учебник. –М.: «Зерцало», 2008.
7. Axrarov Вахром Jabbarovich. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik. Toshkent – 2005.
8. Jinoyat protsessual kodeksi // URL: <https://lex.uz/docs/-111460>;
9. <https://kommers.uz> axborot portali ma'lumotlari.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Ma'muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sud amaliyoti haqidagi 24.12.2019 yildagi 24-son qarori, 8-bandi // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4711311>.